

AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM TIZIMIDA SAMARADORLIGI.

Buriboyev Rustam

Jizzax Prezident maktabi o'qituvchisi

Abstrak

Muhandislik grafikasiga talabalarni qiziqtirish va ularning qobiliyatlarini shakllantirishda chizmachilik fanini paydo bo'lishini ta'minlaydi. Bu maqola muhandislik ta'limini rivojlantirish uchun chizma chizish qobiliyatini o'qitishning usullarini oldinga suradi. Bu usul uch xil mashg'ulotni o'z ichiga oladi, bular an'anaviy mashg'ulotda o'qitish, musobaqaviy o'qitish va zamon talab asosida o'qitish. Biz yana taqvim rejani shakllantiramiz va bizning usulni amalga oshirish uchun turli xil ma'lumotlarni ta'minlaymiz.

Kalit so'zlar: Muhandislik, IT-industriya, AutoCAD, mashinasozlik, landshaft dizayn, iqtisodiy muhandis,

Bugungi kunda biz axborot texnologiyalari deb atalmish XXI asrda yashamoqdamiz. Axborot asrida yashamoq, shu zamon ruxidan nafas olmoq bugungi kunning faol ishtirokchisi hisoblanuvchi har bir o'qituvchi va talaba oldiga zamon talablari asosida ish yurita olish, jahon andozalariga mos bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish, komputer, yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni bilish kabi ma'suliyatli vazifalarni qo'yadi. Bunday bilim va ko'nikmalarni shakllantirishimiz barkomol avlodni tarbiyalab yetishtirishda muhim mezondir. Bundan tashqari har bir talaba, umuman jamiyatdagi har bir inson informatsion madaniyatga ega bo'lishi hayotning o'zi ko'rsatib turibdi.

Yangi aylanma texnologik inqilob, sanoatda o'garishlarning tezlashishi va raqobat hozirda umumjahon harakatidir. Yangi rivojlanayotgan iqtisod, yangi texnologiya, yangi sharoit va yangi sanoat bilan xarakterlanadi. Bu holat iqtisodiy o'zgarishlarga va qayta yangilanishlarga raqobatbardosh innovatsiya va tadbirkorlikning yuqori qobiliyati uchun muhandislik qobiliyatini talab qiladi. Hozirda ko'p universitetlar va texnika kollejlari muhandislik ta'limni rivojlantirishni amalga oshirish niyatidalar. Shu o'rinda, ular turli xil muhandislik ishlarini rivojlantirish va asos solish kerak. Boshqa tomondan, innovatsion qobiliyatli muhandis iqtidorlar uchun zamonaviy o'quv rejalarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq qilish kerak.

Chizma muhandisi quidagi malaka talablari bo'lishi kerak: mashinasozlik, landshaft dizayn, iqtisodiy muhandis, atrof muhit muhandisi va boshqalar. Ishlab chiqarish texnologiyalarni tezkor yangilash va ishlab chiqarishning bozor talabining cheksiz o'zgarishlariga talablarga muhandislik chizmachiligiga yangi talablarni qo'yadi. Yangi muhandisga zamonaviy innovatsion o'qitish uslublari bilan bozor rivojlanishiga bog'lash jamiyat ehtiyojlari asosida amalga oshirish kerak. Yangi muhandislik g'oyalari bilan bog'lash orqali biz muhandislik chizmachiligi qobiliyatini shakllantirishga asos solamiz. Bu usul o'rgatishga muhit yaradi va

talabalarga muhandislik ta'limi rivojlantirish talablari uchun muhandislik chizma g'oyalarni shakllantirish va o'qitish dasturini ishlab chiqamiz

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Axborot texnologiyalar sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora tadbirlar to'g'risidagi " qarorga binoan quidagi ishlar amalga oshirilishi takidlab o'tilgan..¹

Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Axborot texnologiyalari sohasidagi kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar davlat organlari va tarmoq tashkilotlarini malakali IT-mutaxassislar bilan ta'minlash uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Xususan, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab va bir qator xorijiy universitetlar filiallari faoliyati yo'lga qo'yilib, tuman va shaharlarda raqamli texnologiyalarga o'qitish markazlari bosqichma-bosqich tashkil etilmoqda.

Shu bilan birga, respublikaning mehnat bozorida malakali kadrlar yetishmovchiligi axborot texnologiyalari sohasidagi o'quv dasturlari va uslublarini takomillashtirish, ta'lim muassasalarining IT-kompaniyalar bilan o'zaro hamkorligini kuchaytirishni taqozo etmoqda. Ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilansin: o'quvchilarning ijodiy rivojlanishi uchun sharoitlar yaratish, shu jumladan "Bir million dasturchi" loyihasini maktab o'quv dasturlariga integratsiya qilish orqali o'quvchilarga axborot texnologiyalari va kompyuterda dasturlash asoslarining chuqur o'rgatilishini tashkil etish;

o'quvchilarni o'qitish va bilimlarini baholashning zamonaviy uslublarini joriy qilish, shu jumladan raqamli o'quv vositalari va masofaviy ta'lim shaklini keng qo'llash, shuningdek, ta'lim jarayonini umumiy kasb mahoratini shakllantirishga yo'naltirilgan fanlararo modullardan foydalangan holda tashkil etish;

o'quv dasturlarining raqamli iqtisodiyot talablariga moslashishini ta'minlash va bu borada ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari, davlat idoralari va tarmoq korxonalari bilan hamkorlikni rivojlantirish;

o'quvchilarning Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki (keyingi o'rinlarda — IT-park) rezidentlari faoliyati bilan yaqindan tanishishi uchun sharoitlar yaratish, ularning ushbu yo'nalishga qiziqishini oshirish;

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning PQ-4851 06.10.2020 sonli qaroridan

oliy ta'lim muassasalari — o'quv jarayonini metodik qo'llab-quvvatlaydi, yuqori malakali professor-o'qituvchilarni va iqtidorli talabalarni ta'lim jarayoniga jalb etadi, mahorat darslari va to'garaklarni tashkil etadi;

ishlab chiqarish korxonalari — “ustoz-shogird” an'analari asosida o'quvchilarning nazariy bilimlari va ko'nikmalarini mustahkamlaydi, o'quv va amaliy mashg'ulotlar, shu jumladan mahorat darslari o'tkazilishiga ko'maklashadi;

ilmiy va innovatsiya markazlari, tarmoq korxonalari — ilm-fanni o'quv jarayoni bilan integratsiya qilish, o'qituvchilar tomonidan ta'lim jarayonida ilmiy ishlar natijalaridan samarali foydalanish uchun sharoitlar yaratadi, ularning axborot texnologiyalari sohasidagi tadqiqotlar va ilmiy ishlarga bo'lgan qiziqishini oshirish bo'yicha choralar ko'radi.

Bu qarorni amaliyotda qo'llash uchun muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda ham axborot texnologiyalardan foydalanishda quidagi o'ziga xos vazifalarni qo'yish mumkin. Dars jarayoniga grafik dasturlardan foydalanish, misol uchun AutoCAD dasturi, va o'qituvchilar zamonaviy o'quv dasturlar ishlab chiqish zarur. Talabarni grafik kompetenligini oshirishda zamonaviy grafik dasturlardan foydalanish zamon talabiga mos kadrlar bo'lib chiqishidagi asosiy vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rixsiboyev T. Kompyuter grafikasi.-T.:2006, 168 b.
2. А.Федоринков, А.Кимаев. AutoCAD 2002, М.:“ДЕСС SOM” , 2002.
3. Романичева Э.Т. AutoCAD верс.12,13,14. М.: – 1997.
4. Kuchkarova D.F., Pulatova X.A., Xaitov B.U. “Kompyuter grafikasi”. Metodik ko'rsatma. T.: 2009.
5. Соколова Т.Ю. AutoCAD 2009. Учебный курс(+CD).-СП.:Питер, 2008.- 576 с.
6. Vohidov M.M., Mirzayev Sh.R. Binolar va inshootlar konstruksiyalari. T.:Mehnat, 2003 y., 183 bet.
7. Vohidov M.M. Sanoat inshootlari fanidan «AutoCad» dasturi yordamida inshootlarning loyihalarini kompyuterda ishlab chiqish. Buxoro, Bux OOvaYeSTI, 2005 y., 104 bet.